

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA

AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKALARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA TEXNIK SALOHIYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салоҳиддин Исматович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich

YANGI O'ZBEKİSTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVİY O'ZGARİSHLAR
DİNAMİKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENСIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoj Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Zokirova Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI 164-169

Negmatova Mumtozbegim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183*Сеитниязов Камарбек Параҳатович*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИННИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич
ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING
HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли
ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna
RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'R
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna
FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING
PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Сайдова Камола Усканбаевна
КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАҶНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ
ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович
МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna
ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND
MODERN EDUCATION 251-254

Received: 10 September 2024

Accepted: 15 September 2024

Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

THE OTTOMAN EMPIRE AND DIPLOMATIC RELATIONS WITH THE KHANATES OF CENTRAL ASIA

Vahabov Azizjon Khamidovich

"The Knowledge Academy", director of educational affairs

Abstract. The article analyzes the historical development of political and diplomatic relations between the Central Asian khanates and the Ottoman Empire. In particular, it examines the relations between the Shaybanid state and the Ottoman Empire in the 15th-16th centuries. The article highlights the unique aspects of political relations during this period, various diplomatic ties, political coalitions, as well as changes in the international situation in these regions.

Keywords: Central Asian khanates, Ottoman Empire, Shaybanid state, political relations, diplomatic ties, embassy, tekke, international politics, cooperation.

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA ELCHILIK ALOQALARI

Vaxabov Azizjon Xamidovich

"The Knowledge Academy", O'quv ishlari bo'yicha direktor movini

Annotatsiya. Maqolada O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniyalar sultanati o'rtasidagi siyosiy va diplomatik munosabatlarning tarixiy rivoji tahlil qilingan. Xususan, XV-XVI asrlardagi Shayboniyalar davlati va Usmoniyalar sultanati o'rtasidagi aloqalar ko'rib chiqilgan. Maqolada ushbu davrdagi siyosiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari, turli diplomatik aloqalar va siyosiy koalitsiyalar, shuningdek, ushbu mintaqalardagi xalqaro vaziyatning o'zgarishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo xonliklari, Usmoniyalar sultanati, Shayboniyalar davlati, siyosiy munosabatlari, diplomatik aloqalar, elchilik, tekke, xalqaro siyosat, hamkorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N05>

Kirish. O'rta Osiyo xonliklarining Sharq davlati hisoblangan Usmoniyalar sultanati (Turkiya) bilan o'zaro siyosiy va diplomatik aloqalarining tarixiy ildizlari mintaqada xonliklar vujudga kelishi ilk davrlariga borib taqaladi. Ayniqsa, xonliklar elchilik va diplomatik aloqalari tarixida Usmoniyalar sultanati bilan munosabatlari turli yo`nalishlarda olib borilganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi. Usmoniyalar davlati va O'rta Osiyo mamlakatlari o'zaro munosabatlari, aloqalari tarixi o'zining juda chuqur ildizlariga ega. Bu munosabatlari XIV asrdan XX asr boshlarigacha uzlucksiz rivojlanib, siyosiy, diplomatik, madaniy, ilm-fan va diniy sohalarni qamrab olgan.

O'rta asrlarning qudratli davlatlaridan biri bo`lmish Usmoniyalar davlati o'z qudratining cho`qqisiga yetgan davrida o`z tarkibiga Osiyo, Yevropa, Afrika qit'alarining keng bepoyon hududlarini kiritgan edi. Bu haqida ko`p sonli tarixiy manbalar guvolik beradi. Tarixiy

yilnomalar va o'sha davr hujjatlari tufayli Usmoniyalar sultanati va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi XV-XVI asrlardagi harbiy-siyosiy va diplomatik munosabatlar yetarli darajada ma'lum. Ammo hozirgacha keyingi davr o'zaro munosabatlari, ayniqsa, XVIII-XX asr boshlari uncha puxta o'rganilmaganligicha qolmoqda. Bu bir necha muhim tarixiy vaziyatlar bilan bog'liq.

Avvalo, XVI asrda rasmiy e'tiqod sifatida islom dinining shia mazhabini qabul qilgan va uni o'zining sun'iy oqimiga e'tiqod qiluvchi qo'shnilar bo'lmish Usmoniyalar sultanati va Shayboniyalar davlatiga qarshi qilib qo'yan Safaviylar davlatining tashkil topishi Kichik Osiyo va O'rta Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqalarning susayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, XVII-XIX asrlarda musulmon sivilizatsiyasining qulashi, Yevropa mustamlakachiligi ekspansiyasining butun dunyodagi faol harakati, G'arb va rus qurollarining Sharqqa suqulib kirishi sodir bo'ldi. Ushbu davrda musulmon dunyosining juda ko'p mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasiga siyosiy qaramlikka tushib qolishdi. Tabiiyki, bunday vaziyatda, Usmoniyalar sultanati va O'rta Osiyo o'rtasidagi faol siyosiy-diplomatik va boshqa munosabatlar haqida gapirish qiyin hisoblanadi. Shunga qaramay, arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, aloqalar tamomila uzilib qolmagan va bu haqda usmonli hujjatlarda sezilarli darajada ma'lumotlar mavjud. Ushbu masaladagi hujjatlarning nashrlari, e'lonlari tarixchilarga Usmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar tarixiga yangicha qarashga va obyektiv baho berishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki ishlarni Turkiya Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat arxivlari ma'muriyati amalga oshirdi. 2004-yilda ushbu tashkilot Istanbulda Usmoniy arxividan XVI-XIX asrlarga oid bo'lgan 76 ta hujjatni nashr qildi [1, 7-8]. Ushbu vaqtida Turkiya arxivlari mazkur mavzu bo'yicha juda boy manbalar kolleksiyasini saqlamoqda.

Ma'lumki, Turkiston hududi ya'ni Temuriylarning Turon davlati XVI asrdan boshlab, Buxoro xonligi va Xiva xonligi, XVIII asrdan esa Qo'qon xonligining tashkil topishi bilan uchta mustaqil qismlarga bo'linib ketdi. Xonliklar o'zining mavjud bo'lgan davrida o'zaro diplomatik va savdo-sotiq aloqalariga e'tibor bermagan deyish noto'g'ri. Xonliklar tashkil topishining dastlabki kunlaridan boshlab o'zaro aloqalarni keng hududlarga yoyish, o'zaro va boshqa qo'shni davlatlar bilan diplomatik, savdo-sotiq aloqalarini kengaytirishga e'tibor bergenlar. Har bir xonlik o'ziga qo'shni bo'lgan davlat bilan teng huquqli aloqa o'rnatishga intilgan.

Xususan, Movarounnahrda Shayboniyalar davlati tuzilgach, ushbu davlat, avvalo, o'z siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun o'z davrining qudratli davlatlari bilan o'zaro aloqalar o'rnatdi. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon Usmoniyalar sultanati bilan aloqalarni qo'llab-quvvatlab, do'stona aloqalar o'rnatishga intildi. Bundan siyosiy maqsad ya'ni Eron Safaviylariga qarshi ittifoq tuzish ko'zlangan edi. Muhammad Shayboniyxon Usmoniyalar sultonı Boyazid II bilan ittifoqda Eron shohi Ismoil I Safaviy (1502-1524) ga qarshi kurashgan.

Ushbu ma'lumotlarga ahamiyat bersak, Shayboniyalar davlati Safaviylarga qarshi kurashish maqsadida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga uringanlar. Asosan, e'tiqod birligi negizida Usmoniyalar sultanati bilan harbiy ittifoq tuzib, birlikda harakat qilishga harakat qilganlar.

Xususan, ushbu o'zaro diplomatik va savdo-sotiq aloqalari XVI asrdan sulton Sulaymon I Qonuniy hukmronlik qilgan davrdan boshlab yana ham jonlana boshladi [2].

Sulton Sulaymon Qonuniy (1520-1566) hukmronligi davrida Usmoniyalar sultanati qudratli davlatga aylandi. Sulaymon I Usmoniyalar sultanati hukmdori Salim I o`g`li bo`lib, 1494-yilda Trabzontda dunyoga kelgan. Onasi Oysha Hafiza sulton ba`zi ma'lumotlarga qaraganda Qrim xoni Mengli I Garoyning qizi [3, 201] bo`lgan. 26 yoshida Usmoniyalar sultanati hukmdori bo`lgan sulton Sulaymon I 1521-yilda Belgradni bosib oldi, usmonli-venger urushlaridan so`ng janubiy va markaziy Vengriyani davlati tarkibiga kiritdi, 1526-yilda butun Vengriyani qo`shib oldi, 1529-yilda Venani qamal qildi, Transilvaniya, Valaxiya va Moldaviya Usmoniyay saltanatining vassallariga aylandi. Sharqda turklar 1535-yilda Bag`dodni egallab, Mesopatamiya ustidan boshqaruvni o`z qo`liga oldi va buning natijasida fors ko`rfaziga chiqdilar. 1543-yilda Usmoniyalar sultanati Fransiya bilan ittifoqda Avstriya Gabsburglariga qarshi kurashlar olib boradi hamda g`alaba qozonadi. Sulaymon I Qonuniy hukmronligi so`nggida Usmoniyalar saltanatining aholisi 15 million kishini tashkil qilgan. Bundan tashqari, Usmoniyalar harbiy floti O`rtayer dengizining juda katta qismini nazorat qilgan. Ushbu davrda Usmoniyalar sultanati juda katta muvaffaqiyatlarga erishdiki, bu o`z navbatida, bu davlatni G`arbiy Yevropada ko`pincha Rim imperiyasiga tenglashtirganlar [4, 163].

XV - XVI asrlarda Usmoniyalar sultanati va Eron safaviylari o`rtasida o`zaro urushlar davom etgan. 1533-yilda sulton Sulaymon I Eronga qarshi keng ko`lamli harbiy yurishlarni boshlab yubordi. Eron shohi Taxmasb I (1524-1576) ushbu davrda Xuroson masalasida o`zbek xonliklari bilan urush olib borayotgan edi.

Buxoro xoni Ubaydullaxon I (1533-1539) Usmoniyalar sultanati bilan aloqalarni qo`llab-quvvatlab, Safaviylarga qarshi ittifoq tuzishga intildi. Ubaydullaxon I Shayboniyalar davlati hududlarini kengaytirish siyosati yuritib, Muhammad Shayboniyxon o`limidan so`ng qo`ldan ketgan Xuroson mulkclarini Safaviylar davlatidan qaytarib olishga intildi. Ubaydullaxon I 1529 va 1536-yillarda ikki marotaba Hirotni egallaydi. Uning hukmronligi yillarida Buxoro xonligi Xurosonga besh marotaba yurish qildi. Ubaydullaxon mamlakat ichidagi o`zaro urushlarga chek qo`ydi. Ubaydullaxon Usmoniyalar sultanati bilan hamkorlikda Eronga qarshi urush olib bordi. 1533-yilda Safaviylar davlati qo`shinlari Ubaydullaxon boshliq Buxoro xonligining Xurosonni egallaganligiga qarshi harbiy yurishni amalga oshiradi. Bundan foydalangan sulton Sulaymon I Eron Ozarbayjoniga hujum qildi. Tekelli qabilasi amiri Ulamo turklar tomoniga o`tib, Safaviylar davlati poytaxti Tabrizni topshiradi. 1534-yilda Sulaymon I Bog`dodni egalladi. Basra, Huziston, Luriston, Baxrayn va Fors ko`rfazining janubiy qirg`og`i knyazliklari sulton Sulaymon I ga bo`ysundilar. 1535-yilda shoh Taxmasb hujum qilib Tabrizni qaytib olgan bo`lsada, sulton Sulaymon I shaharni qayta egalladi hamda Diyorbakr va Xalab orqali 1536-yilda Istanbulga qaytib ketadi.

Buxoro hukmdori Ubaydullaxon I sulton Sulaymon bilan aloqalarni mustahkamlashga intilib, 1534-yilda sultonga maktub yo`llaydi. Ubaydullaxon davrida Buxoro xonligi siyosiy mavqeい mustahkamlandi. Ushbu siyosatni o`z navbatida, Abdulatifxon (1540-1551) ham davom ettirib, 1540-yilda Sulaymon Qonuniyga maktub yo`lladi. Buxoro xonlari payg`ambar yo`lida sulton Sulaymon I bilan Eron safariga chiqishga rozilik bergenlar. Eron hukmdorlari haj yo`lini, ya`ni Makka va Madina yo`lini yopib qo`yanligi turk sultonini bilan o`zbek xonlarini bir maqsadga birlashtirgan [5, 52]. Ushbu masalada shuni ham inobatga olish kerakki, bu ikki qudratli davlatlarni e`tiqod ya`ni, islom dinining sun'iy mazhabi ham birlashtirib, ularning maqsadini mushtarak qilib qo`yan.

1553-yil avgustda Sulaymon Qonuniy Xalab orqali safaviylarga qarshi safarga chiqadi. Safaviylar usmoniyalar va o'zbeklar orasida ikki tomonlama jang qilishdan tashvishga tushib qoldi. Usmoniylardan Ahmad Javush va Saydi Ali Rais Buxoro va Samarqandga elchi bo'lib keldi. Usmonli podshohining 300 kishilik qo'shini va birinchi to'pchisi xonlikka keladi hamda Navro'z Ahmad Baroqxon saroyida xizmatda bo'ladi.

Navro'z Ahmad Baroqxon (1537-1556) davrida Sayyid Ali Rais uning huzurida bo'ldi va muzokalar olib bordi. Navro'z Ahmadxon elchisi Qutlug' Po'lotxon 1556-yil xon maktubi bilan sulton huzuriga keldi. Maktubda o'zaro ittifoqchilik hamda Eronqa qarshi zafarli harbiy yurishlar haqida gapirilib, sultondan yordam so'rangan. Biroq, 1555-yil Usmonli-Eron tinchlik bitimi imzolangan edi. Shundan so'ng siyosiy aloqalarda biroz to'xtalishlar bo'lgan bo'lsada, o'zaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar davom etgan. Birinchidan, xonliklar ichki hayotidagi kurashlar, ikkinchidan, Usmoniyalar saltanatining shimoliy hududlari va Yevropa davlatlariga qarshi siyosiy kurashlar bilan band bo'lib qolganligi bo'ldi. Ammo Usmoniyalar saltanati bilan aloqalar keyingi davrlarda ham keng ko'lama davom etgan.

Ashtarkoniylar hukmronligi davrida ham Usmoniyalar davlati bilan aloqalar rivojlanib bordi. Chunonchi, 1616-1617-yillarda Imomqulixon va Usmoniyalar davlati sultoni Ahmed I o'rtasida elchilik almashinuvlari bo'lib, o'zaro harbiy ittifoq tuziladi. Sharqnomaga ko'ra, Buxoro xonligi qo'shini turklarga yordam berish maqsadida safaviylarga hujum qiladi. Ammo sulton Ahmedning vafotidan keyin harbiy harakatlar to'xtatilgan.

Xiva xonligi bilan Usmoniyalar davlati o'rtasidagi aloqalarni yoritishga xizmat qiluvchi "Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat" asarida Xiva xonligi va Usmoniyalar davlati o'rtasidagi aloqalar mufassal yoritilgan. Mazkur asarning muallifi Mehmet Amin Afandi O'rta Osiyoga 1878-yilda kelgan bo'lib, u Ko'hna Urganch – Hiloliy – Shavot kanali orqali – Toshhovuz – Yangi Urganch shaharlari orqali Xivaga kelgan. Bu yerda sayyoh devonbegi, Xiva xoni Muhammad Rahimxon, Sayyid Ahmad Otajon To'ra qabulida bo'lib, ular bilan o'tkazilgan muloqotni bayon etgan. Ushbu asarda keltirilishicha, Muhammad Rahimxon I (1806-1825) va Olloqulixon (1825-1842) hukmronliklari yillarda Usmoniyalar saltanati bilan aloqalar qo'llab quvvatlangan. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davrida Usmoniyalar davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatilib, ikki davlat o'rtasida elchi almashinuvlari bo'lib o'tgan [6, 159].

O'rta asr an'analarini saqlab qolgan Usmoniyalar saltanati XVII-XVIII asrlarda ham Yevropa, Osiyo, Afrika qit'alaridagi o'nlab davlatlarni o'zida birlashtirgan edi. Arabiston yarimoroli (Hijoz, Makka, Madina) ham Usmoniy sultonlar izmida bo'lib, O'rta Osiyo xonliklaridan Makka va Madina haji ziyyaratiga chiqqanlar saltanat poytaxti Istanbul orqali o'tib, qaytardilar. Ular xalifa izdoshi hisoblangan turk sultonidan ruxsat olib, uning panohida haj arkonlarini bajarganlar. Istanbulgacha yetib kelgan ziyyoratchilar, shayx va ulamolar, ularning shogirdlari bir necha kun yotib qoladigan bino – tekke (takya) deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi – "darvish va musofirlar ibodatxonasi" ni ifodalaydi. Tekkelarda masjid, madrasa, xonaqoh (o'rta asr mehmonxonasi va taomxonasi) kabilar bo'lgan. O'zbeklar (buxoroliklar) tekkasi birgina Istanbul shahrida 8 ta bo'lib, ulardan faqat 3 tasining hozirgi kunda o'rnatshgan joyi ma'lum. Eng oldin qad ko'targan tekke – Istanbul shahrining Uskudor rayonidagi Sultontepa tepaligida joylashgan uch qavatli binodir [7]. Bu tekke Istanbul shahrining Osiyo qismida joylashgan. Ikkinchi tekke, Istanbul shahrining Yevropa qismidagi So'qili Mehmet posho ko'chasida joylashgan bo'lib, mashhur Sulton Ahmet (Yashil masjid) dan 200 metr uzoqlikda

joylashgan. Uchinchi tekke esa, Ayyub tarixiy masjidi yaqinida bo`lib, undan faqat boshlang`ich maktab binosi saqlangan.

Xullas, o`zbek tekkelari Usmoniyalar sultanatining ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy hayotida muhim o`rin egallagan. Istanbuldagi Usmonli idorasi Bosh arxivi hujjatlarining guvohlik berishicha, Qo`qon, Buxoro, Xiva xonliklaridan XVIII-XX asr boshlarida turk sultonni saroyiga tashrif buyurgan elchilar tekkalarda bo`lib, ularda istiqomat qilayotgan shayx va ulamolardan tegishli maslahatlar olishgan [8, 68]. 1970-yillarda tekkening asosiy binosi o`rnida Ayyub masjidi diniy ishlarining boshqarma kompleksi qurilgan. Istanbuldagi o`zbek tekkelari turli-tuman vazifalarni bajargan. Jumladan, O`rta Osiyo xonliklaning vakolatxonasi, o`zbeklar merosini saqlash joyi, agar mol-mulk egasi bo`lmasa, meros tekkega o`tkazilgan. Tekkelarda boshpanasiz odamlar tunagan, ma'lum muddat yashagan, bundaylarga oziq-ovqat berilgan. O`zbek musofirlari to`planib o`zbekona palov (osh) tayyorlashgan, milliy tilda diniy qo'shiqlar aytishgan. Masalan, Uskudor rayonidagi tekke 1752-1753-yillarda qad ko`targan bo`lib, dastlab Sulton Mehmet I va uning vaziri tomonidan qurilgan tekke Bahouddin Naqshband ordeni shayxlari boshpanasi bo`lgan. Bu tekkedagi barcha o`zbeklar asli Buxorodan bo`lishgan. Tekkeni saqlab turish uchun davlat tomonidan yog`, gurunch va boshqa oziq-ovqatlar berilgan. Shuningdek, naqshbandiylik ta'limoti targ`ibotchilariga maosh ham berilgan. Shayxlar taklifi bilan bu tekke bir necha bor davlat tomonidan ta'mirlangan. Turkiston general-gubernatorligi (1867-1917) davrida, mintaqada qo`zg`olonlar bo`lganida Turkiya tekkesidagi shayx va ulamolardan ma'naviy madad olishgan. Masalan, 1898-yilda Andijon (Dukchi eshon) qo`zg`aloni vaqtida Muhammadali eshonga turk sultonni yorlig'i va "mo`yi muborak" ni aslida tekke shayxi Ziyovuddin Muhammad (Qoshg`ariy) yuborgan edi.

Ma'lumki, 1920-yilda Istanbulni ingлизlar bosib olgan va Turkiya mustaqilligi xavf ostida qolgandi. Milliy ozodlik harakatiga Mustafo Kamol Otaturk (1881-1938) rahbarlik qilib, Uskudor rayonidagi o`zbeklar tekkesida vatanparvarlar to`planib, Onado`li va Anqara qurolyarog`, o`q-dori va oziq-ovqat jo`natiladigan muhim baza bo`lgandi. Istanbul-Anqara aloqalarida muhim ko`prik bo`lgan tekkeda qurol-yarog`, o`q-dori omborlari tashkil etilgandi. 1920-1922-yillarda o`zbeklar tekkesidan katta partiyadagi qurol-yarog`lar, o`q-dorilar bilan vatanparvarlar kechqurun yashirin yo`lga chiqishgan [9]. Muhojir o`zbeklardan biri tekkalardan boshpana topgan ayrim o`zbeklar milliy-ozodlik uchun kurashlarda bevosita ishtirok etishganini hikoya qilib bergandi. Jumladan shahrini ozod qilishda Xoji Yo`ldosh va u bilan 28 nafar o`zbek millati vakillari janglarda ishtirok etishgan. Ular O`rta Osiyodan Arabistonga Birinchi jahon urushi arafasida o`qishga ketib, yurtga qaytmay Turkiya yerlarida joylashib qolganlar edi. Inglizlar uzoq vaqt Istanbuldagi tekkelar Turkiya ozodligi uchun kurashlarda qurol-yarog` ombori bo`lganligini aniqlay olishmagan.

Tarixning guvohlik berishicha, Sulton Ahmeddagagi tekke shayxi, fiqhshunos Ato Afandi XX asrning 20-yillarida O`rta Osiyoga sayohat qilgan, Anvar posho (1881-1922) bilan uchrashib, uning harbiylari safida Qizil armiyaga qarshi janglarda qatnashgan. Turkiya Respublikasiga moddiy yordam berishga qaratilgan iona (mablag') toplash kompaniyasini uyushtirgan ham Ato Afandi bo`lgandi.

1867-yilda Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi bilan Usmoniyalar sultanati hukmdori o`rtasidagi kelishuvga muvofiq usmoniy sulton tekke shayxlaridan Sulaymon Afandini vaziyatni o`rganish uchun O`rta Osiyoga yuborgan.

Uskudordagi o'zbek tekkesi so`nggi shayxining o`g`li Ahmad O`zbek Kango'y quyidagicha fikrlarni bildiradi: "Tekkening bиринчи шайхи – Ibrohim Ahmad Afandi bo`lib, "ming san'at egasi" edi. U to`qimachilik va yog`ochga ishlov berishda ustasi farang bo`lgan, tekkeni haqiqiy muzeyga aylantirgan. Ikkинчи шайх, Ato Afandi bo`lib, meni amakim hisobланади. Uning davrida tekke milliy-ozodlik harakatining markaziga aylangan. Bu davrda turk millatining mashhur vakillari Adnan Odil, Mehmet Afik Ersun, Fevzi posho Chaqmoq kабilar inglizlardan yashirinib tekkedan panoh topganlar. Oxirgi, uchinchi shayx esa mening otam - Najmiddin Afandi bo`lib, uning davrida tekke musiqa markaziga aylandi. Men otam ishini davom ettirdim". Ushbu tekke maydonida 50 tacha qabr bo`lib, BXSR hukumati rahbarlaridan Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev (1878-1968) ning Istanbuldagi qabri ham shu yerdadir [10, 48]. Tekkelar haqida fikr bildirilar ekan, 1925-yilda Turkiya Respublikasi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk barcha tekkelar faoliyatini ta'qilashga farmon berdi. Prezident Turkiya milliy ozodligi harakatida alohida xizmat ko`rsatgan Uskudordagi tekke faoliyatini davom ettirishini istisno tarzida farmonga imzo chekdi. Ushbu tekke hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda.

Xulosa. Shunday qilib, O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniyalar sultanati o'rtasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar tarixi chuqur ildizlarga ega bo`lib, XVI asrdan XX asr boshlariga qadar uzlusiz rivojlanib kelgan. Ushbu aloqalar o'zaro diplomatik, savdo-sotiq, madaniy va ilm-fan sohalarini qamrab olgan. Usmoniyalar sultanati o'z qudratining cho'qqisiga yetgan davrda Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alarida keng hududlarga va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirgan. Buni juda ko`p tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

Xususan, XVI asrda Shayboniyalar davlatining Usmoniyalar sultanati bilan aloqalari harbiy ittifoq ega bo`lgan bo`lsa, O'rta Osiyo xonliklari esa, o'zaro aloqalarni kengaytirishga harakat qilib, o'zaro siyosiy va diplomatik aloqalar orqali mustahkamlandi. Bu davrda Eron Safaviylariga qarshi kurashda ikki tomonlama ittifoqlar tashkil etildi va siyosiy maqsadlar yuzasidan ko`plab urushlar olib borildi. Buxoro xonligi, xususan, Ubaydullaxon I davrida Usmoniyalar bilan yaqin aloqalar o'rnatdi va Eronga qarshi ittifoqqa kirishdi.

XVII asrda va keyingi davrlarda, Usmoniyalar va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi aloqalar yana ham rivojlandi. Xiva xonligi va Buxoro xonligi bilan o'zaro diplomatik va savdo-sotiq aloqalari mustahkamlandi. Istanbuldagi o'zbek tekkalari o'zining madaniy, diniy va siyosiy rolini davom ettirib, turli-tuman vazifalarni bajardi.

Shu bilan birga, tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari, bu aloqalarning ko`p jihatlarini yoritish bilan birga, tarixchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. O'zaro diplomatik va madaniy aloqalar, o'zaro ittifoqlar, va siyosiy harakatlar O'rta Osiyo va Usmoniyalar sultanati o'rtasidagi munosabatlarning qanday rivojlanganligini va ularning tarixiy ahamiyatini yanada yaxshi tushunishga yordam beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. История Центральной Азии в Османских документах. Том I. (Политические и дипломатические отношения). –Самарканд. 2011. –Стр.7-8.
2. Шейбаниды. Все монархи мира. Мусульманский Восток. XV-XX вв. Архивная копия от 1 ноября 2012 на Wayback Machine.
3. Екатерина Н.К. Народы Северного Кавказа и их связи с Россией: вторая половина XVI – 30-годы XVII века. –М.: Издательство АН СССР, 1963. -С.201.
4. Yilmaz Oztuna. Kanuni Sultan Suleyman. –Kultur Bakangligi, 1989. –P.163.

5. Kelic R (1999) Osmanli-O'zbek siyasi iliskilari (1530-1555) //Turk kulturu VJI XXX VII. S437. Ankara, SS.52-534. Osmanli belgilerinde MERKEJJASVA TARJ//J. (ingliz, turk, rus tillarida) Ankara 2011. -310 S.
6. Mexmet Emin Efendi. Istanbul'dan Orta Asya'ya seyahat. -Anqara, 1986. -B.159.
7. Qosimov B. Ikki qit'ani tutashtiruvchi mamlakat//Xalq so'zi; 1993-yil 5-aprel
8. Mehmet Saray. Milli Mucadele Yillerinde Buhara Cumhuriyetinin Turkiye Yardimi. Turkistanda Yenilik Harekeyleri Ihtileler. 1900-1924. Hearlem; 2001.S.68.
9. Internet ma'lumotlari; <http://www.net>.
10. Haitov Sh.A. Usmonxo`ja Po`latxo`jayev milliy istiqlol kurashchisi. Buxoro: "Buxoro" nashriyoti; 2007.-B.48.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº S/7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсуллияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).